

ISSN: 3030-3877

AJCD
2024

<https://tadqiqot.uz/index.php/spjacd>



Annals of clinical disciplines



VOLUME 2, ISSUE 3/1

2025

ISSN 3030-3877

DOI Journal 10.26739/3030-3877

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE


2 ЖИЛД, 3/1 СОН

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН

ТОМ 2, НОМЕР 3/1

КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

VOLUME 2, ISSUE 3/1



ТОШКЕНТ-2025

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН | КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

№3/1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/0000-0000-2025-3/1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

Sh. J. Teshayev

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharriri, Buxoro davlat tibbiyot instituti rektori, t.f.d., professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

D. A. Xasanova

“Klinik fanlar yilnomasi” jurnali bosh muharrir o'rinbosari, Buxoro davlat tibbiyot instituti anatomiya va klinik anatomiya kafedrası professori, DSc

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

- **U.K. Abdullayeva** - “Klinik fanlar yilnomasi” jurnali mas'ul kotibi, Buxoro davlat tibbiyot instituti fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrası dotsenti, DSc;
- **M.J. Sanoyeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti nevrologiya kafedrası dotsenti, DSc
- **A.G. Gadayev** - Toshkent tibbiyot akademiyasi 3-son ichki kasalliklar kafedrası professori, t.f.d.
- **A.R. Obloqulov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **D.A. Nabiyeva** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 1-son fakultet va gospital terapiya, kasb kasalliklari kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **Sh.T. O'roqov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti xirurgik kasalliklar kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **M.M. Karimov** - Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi “Gastroenterologiya” ilmiy laboratoriyasi boshlig'i, t.f.d., professor
- **N.U. Narzullayev** - Buxoro davlat tibbiyot instituti otorinolarinologiya kafedrası professori, DSc
- **G.N. Sobirova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedrası professori, t.f.d.
- **F.S. Raupov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar xirurgik kasalliklari kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **Sh.B. Axrorova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti, nevrologiya kafedrası dotsenti, DSc.
- **V.R. Akramov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti travmatologiya va neyroxirurgiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **I.K. Sadullojeva** - Buxoro davlat tibbiyot instituti bolalar kasalliklari propedevtikasi va bolalar nevrologiyasi kafedrası mudiri, DSc, dotsent

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

- **G.J. Jarilkasinova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti oilaviy shifokorlarni qayta tayyorlash kafedrası professori, DSc
- **U.S. Mamedov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti onkologiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **A.A. Saidov** - Buxoro davlat tibbiyot instituti ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrası professori DSc
- **N.N. Karimova** - Buxoro davlat tibbiyot instituti 3-son akusherlik va ginekologiya kafedrası mudiri, DSc, dotsent
- **U.K. Qayumov** - tibbiyot xodimlarini kasbiy malakasini oshirish markazi ichki kasalliklar kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **M.E. Raximova** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrası dotsenti, t.f.d.
- **R.I. To'raqulov** - Toshkent tibbiyot akademiyasi, 3-son ichki kasalliklar kafedrası professori, t.f.d.
- **Ch.S. Pavlov** - I.M. Sechenov nomidagi birinchi Moskva davlat tibbiyot universiteti terapiya kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **L.B. Novikova** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrası professori, t.f.d.
- **O.I. Letyayeva** - Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Janubiy Ural davlat tibbiyot universiteti” federal davlat byudjet oliy ta'lim muassasasi dermatovenerologiya kafedrası professori, t.f.d.
- **I.V. Reverchuk** - I.Kant nomidagi Boltiq federal universiteti psixonevrologiya va psixosomatika kafedrası mudiri, t.f.d., professor
- **Edip Gonullu** - Izmir Bakirchay universiteti anesteziya va reanimatsiya kafedrası dotsenti, t.f.d.
- **Eva Lietto** - Italiya Campania universiteti “Luigi Vanvitelli”ning tarjima tibbiyot fanlari kafedrası mudiri, t.f.d., professor

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 369/6 от 5 апреля 2025 г.

© Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

О журнале

Журнал зарегистрирован в Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан
№ С-239963 от 14 марта 2024 года

Адрес редакции: Республика Узбекистан, 200114,
г. Бухара, ул. Гиждуван, 23
Телефон: +998(65)2230050
Сайт: <https://tadqiqot.uz/index.php/spjacd>
e-mail: abumkur14@gmail.com

1. Abdullayeva U.K., Rakhimova M.B.	
Pomegranate seed oil for ulcerative colitis.....	7
2. Abdurakhmonova Q., Rakhimbaeva G.	
Inflammatory biomarkers and insulin resistance in acute ischemic stroke of different etiologies...	12
3. Boymuradov Sh.A., Khatamov U.A.	
Biomechanical and clinical analysis of atypical counterforces in maxillofacial trauma from electromechanical impacts.....	19
4. Baymuratova A.Ch.	
Tizza bo'g'imi ichki strukturalari jarohatlanishlarini utt orqali klinik baholash va fizioterapevtik reabilitatsiyani optimallashtirish	26
5. Boboyev Sh.R., Saidov G.N., Keldiyorova Z.D.	
Tajribaviy oshqozon-ichak traktining sirka kislotasi bilan kimyoviy kuyishida yo'g'on ichak devoridagi morfologik o'zgarishlarning qiyosiy tavsifi.....	32
6. Jumaeva G.A.	
Klinik farmakologiyada innovatsion o'quv modeli: talaba markazli yondashuv.....	38
7. Keldiyorova Z.D., Zaripova S.O.	
O'tkir respirator virusli infeksiyalar va torch- infeksiyasi bilan kasallangan bolalarda klinik-laborator o'zgarishlar.....	43
8. Khalikova F.Sh.	
Morphological structure of the thyroid gland of white rats in chemotherapy of breast cancer.....	51
9. Mirzayeva M.R., Yodgorova M.Sh.	
Latent course of liver fibrosis in patients with chronic hepatitis B: comparative evaluation of noninvasive diagnostic methods (APRI, FIB-4 and fibroscan).....	58
10. Muradimova A.R., Madjidova Y.N., Khidoyatova D.N., Sharipov F.R.	
Bioacoustic correction of cognitive impairment in stroke patients.....	69
11. Najmutdinova D.Q., Ismoilova Sh.S.	
2-tur natriy-glyukoza kotransportyori ingibitorlarini qo'llashda jigar fibroz ko'rsatkichlari va insulinga rezistentlik dinamikasi.....	74
12. Nazirxujayev F.A.	
Farg'ona viloyati aholisi orasida "O'rta yer dengizi parxezi"ni qo'llash orqali surunkali pankreatit xurujlari profilaktikasini optimallashtirish.....	79
13. Nurmatova O.A.	
Bolalarda nefrotik sindromning profilaktikasini takomillashtirish yo'llari (Farg'ona viloyati misolida).....	84
14. Ortiqboev J.O.	
Molecular genetic analysis of the renin–angiotensin system in chronic kidney disease.....	89

15. Oxunova M.J.	
Farg'ona viloyatida 3 yoshgacha bolalarda pnevmoniya rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy xavf omillari.....	95
16. Rasulova N.R. Temirova N.R.	
Tajribaviy kimyoterapiya natijasida ayrisimon bezdagi morfologik o'zgarishlarning qiyosiy tahlili.....	99
17. Raxmatullayeva G.K., Axmedova N.A., Kasimova M.B., Xudayberganova N.X.	
Oshqozon-ichak kasalliklarida so'rovnomas o'tkazish va uni o'rganish.....	108
18. Subkhanova Z.S., Raimkulova N.R.	
Interrelationship between gastroesophageal reflux disease and respiratory diseases: general pathogenetic mechanisms and modern research findings.....	112
19. Subxanova Z.S., Raimkulova N.R.	
Gastroezofageal reflyuks kasalligi, surunkali obstruktiv o'pka kasalligi va bronxial astma: komorbidlikning dolzarb masalalari.....	115
20. Temirova M.B., Kasimova M.B., Axmedova N.A.	
Metabolik assotsirlangan jigar yog' kasalligida bemorlarning tana tuzilishini bioimpedance spektroskopiya yordamida baholash.....	118
21. Tukhtaeva N.Kh., Musayev H.N.	
Development of gastropathy against the background of nonsteroidal anti-inflammatory drugs in patients with rheumatoid arthritis against the background of virulent genes of helicobacter pylori.....	123
22. Абдуллаева У.К., Рахимова М.Б.	
Ярали колит хавф омиллари: замонавий қарашлар.....	128
23. Абдулхаков И.У., Абдулхаков М.И.	
Общеврачебная практика как эффективная модель профилактики неинфекционных заболеваний.....	132
24. Адизова С.Р., Носирова З.Ж.	
Преэклампсия оғирлашувида гемостаз тизимининг таъсири.....	143
25. Акрамов О.З., Аблязов О.В., Кадыров Ш.У.	
Инновационные подходы нейровизуализации при опухолях функционально важных участков мозга у детей.....	149
26. Аликулова Н.А., Ўринова Г.М.	
Мия инфаркти ва СМИ ўтказган беморларда клиник-функционал кўрсаткичлар динамикаси.....	156
27. Алимов А.А., Алимов А.В., Шарипов А.М., Шоикрамов Ш.Ш.	
Профиль инотропной поддержки у детей после коррекции врождённых пороков сердца: частота, дозы и динамика применения.....	166
28. Аллокулов Р.Р., Акрамов В.Р., Нуралиев Ф.Н.	
Кекса ва қари ёшдаги шахсларда гонартрознинг клиник-иммунологик жихатлари.....	172

29. Асадов Х.Ф.

Хирургия мигрени: сравнительный анализ двух хирургических методик лечения височной мигрени: нейроэктомия и декомпрессия ветви скуловисочного нерва.....182

30. Аскарров Ш.Ш., Салахитдинов Ш.Н.

Перспективные интервенционные технологии при тромботических осложнениях острого коронарного синдрома.....187

31. Гадаев А., Халимова Х., Гадаева Н.

Ўпканинг сурункали обструктив касаллиги ва артериал гипертензияда буйраклар дисфункцияси (адабиётлар шархи).....193

32. Гаффорова В.Ф., Ходжиева Д.Т.

Клинико-нейрофизиологические характеристики фебрильных судорог у детей.....200

33. Давлетова Ш.Б.

Роль микробиоты кишечника в развитии неврологических заболеваний у детей.....205

34. Даминов Б.Т., Ортикбоев Ж.О.

Уровень витаминов группы В и витамина Д у больных с хронической болезнью почек в зависимости от прогрессирования заболевания.....216

35. Джураев И.Б., Курбанов О.М., Бабаназаров У.Т.

Клинические проявления патологий желудка у больных в критическом состоянии в условиях искусственного дыхания.....221

36. Жалалова В.З.


Оптимизация восстановительных процессов при физических нагрузках с помощью спирулины: морфофункциональные и клинические аспекты.....229

37. Ибодуллаева Н.М.

Бачадон саратон олди касалликлари бўлган аёлларда неврологик ва психоэмоционал ўзгаришларнинг психосоматик жиҳатлари.....237

38. Иноятов А.Ш., Ражаматов Т.Р., Умаров Б.Я.

Функциональная и иммунологическая обоснованность применения щечного жирового лоскута при палатопластике в детском возрасте.....241



Jumaeva Gulruxsor Aliyorovna

Alfraganus universiteti, Toshkent, O'zbekiston

<https://orcid.org/0000-0001-8631-7890>

KLINIK FARMAKOLOGIYADA INNOVATSION O'QUV MODEL: TALABA MARKAZLI YONDASHUV

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17352442>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada klinik farmakologiya fanini o'qitishda talaba markazli yondashuvning afzalliklari va uni amaliyotga tadbiq etishning innovatsion usullari ko'rib chiqiladi. An'anaviy o'qitish metodlaridan farqli o'laroq, talaba markazli o'quv modeli talabalarni faollikka, mustaqil fikrlashga, klinik holatlarni tahlil qilishga va amaliy qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi.

Kalit so'zlar (Keywords): klinik farmakologiya, innovatsion ta'lim, talaba markazli yondashuv, interaktiv o'qitish, PBL (muammo asosida o'qitish), klinik tafakkur, simulyatsion trening, tibbiy ta'lim, kasbiy kompetensiyalar.

Жумаева Гулрухсор Алиёровна

Университет Альфраганус, Ташкент, Узбекистан

<https://orcid.org/0000-0001-8631-7890>

ИННОВАЦИОННАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ МОДЕЛЬ В КЛИНИЧЕСКОЙ ФАРМАКОЛОГИИ: СТУДЕНТОЦЕНТРИРОВАННЫЙ ПОДХОД

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются преимущества студентоцентрированного подхода в преподавании клинической фармакологии и инновационные методы его внедрения в образовательный процесс. В отличие от традиционных методов обучения, студентоцентрированная модель направлена на активизацию студентов, развитие их самостоятельного мышления, навыков анализа клинических ситуаций и принятия практических решений.

Ключевые слова: клиническая фармакология, инновационное обучение, студентоцентрированный подход, интерактивное обучение, PBL (обучение на основе проблем), клиническое мышление, симуляционное обучение, медицинское образование, профессиональные компетенции.

Jumaeva Gulruxsor Aliyorovna

Alfraganus University, Uzbekistan.

<https://orcid.org/0000-0001-8631-7890>

INNOVATIVE EDUCATIONAL MODEL IN CLINICAL PHARMACOLOGY: STUDENT-CENTERED APPROACH

ABSTRACT

This article explores the advantages of a student-centered approach in teaching clinical pharmacology and the innovative methods for its implementation in practice. Unlike traditional teaching methods, the student-centered educational model focuses on encouraging student engagement, independent thinking, analysis of clinical cases, and decision-making skills.

Keywords: clinical pharmacology, innovative education, student-centered approach, interactive teaching, PBL (problem-based learning), clinical reasoning, simulation training, medical education, professional competencies.

Kirish. Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimida fanlararo integratsiyalashuv, amaliy ko'nikmalarga asoslangan yondashuv va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash dolzarb masalaga aylangan. Ayniqsa, klinik farmakologiya kabi klinik qaror qabul qilishni, dori vositalarining to'g'ri qo'llanilishini va individual bemorga yo'naltirilgan terapiya tanlashni talab qiladigan fanlar bo'yicha ta'lim jarayonini yangilash zarurati kuchaymoqda.

An'anaviy ma'ruza va seminarlar orqali o'qitish uslublari, odatda, talabani passiv tinglovchi sifatida shakllantirib, uning mustaqil fikrlashi, klinik tafakkuri va amaliy qaror qabul qilish ko'nikmalarini etarli darajada rivojlantirmaydi. Shu boisdan, dunyo bo'yicha etakchi tibbiy ta'lim muassasalari tomonidan talaba markazli yondashuv asosida qurilgan innovatsion o'quv modellari keng joriy etilmoqda.

Talaba markazli yondashuvda o'quv jarayonining markazida o'qituvchi emas, balki talabaning o'zi, uning faolligi, tanqidiy fikrlashi, mas'uliyatli qaror qabul qilish qobiliyati turadi. Ushbu maqolada klinik farmakologiya fanini o'qitishda aynan talaba markazli yondashuvning samaradorligi, afzalliklari va amaliy joriy etish usullari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda tibbiy ta'limda talabani o'quv jarayonining markaziga qo'yish konsepsiyasi keng tarqalmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) va boshqa xalqaro tibbiy ta'lim tashkilotlari tomonidan talaba markazli yondashuv tibbiy ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan [1,2,20,21].

Ko'plab xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, problemga asoslangan o'qitish (PBL), simulyatsion treninglar, kichik guruhlarda muhokama, va refleksiya asosida o'rganish metodlari klinik fanlarda, ayniqsa klinik farmakologiyada talabalarning bilimni amaliyotga tatbiq etish darajasini sezilarli oshiradi [3,4,11].

Misol uchun, BEME (Best Evidence Medical Education) tahlillarida interaktiv va talaba markazli metodlarning an'anaviy ma'ruzalarga nisbatan samaradorligi 25–35% ga yuqori ekani ta'kidlangan [5,14,16]. Shuningdek, Lancet Commission on Health Professionals for the 21st Century hisobotida zamonaviy tibbiy ta'limda interaktivlik, kasbiy kompetensiyalar, va klinik fikrlashni rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida ko'rsatilgan [6,13,15].

O'zbekiston Respublikasida ham 2020 yildan boshlab oliy tibbiy ta'limda kompetensiyaga asoslangan yondashuvni joriy etish ishlari boshlangan bo'lib, ko'plab oliy ta'lim muassasalari ushbu yondashuvni o'zlashtirishga kirishdi. Ammo, talaba markazli modelni to'liq joriy etish uchun metodik qo'llanmalar, o'qituvchilar malakasini oshirish, va zamonaviy texnologiyalar asosidagi didaktik materiallar etarlicha shakllanmagan [7,10,17,19,20]. Bundan tashqari, klinik farmakologiyada simulyatsion o'qitish usullari — masalan, virtual bemor modullari, dori dozasi hisoblash trenajyorlari, va farmakoterapiya bo'yicha interaktiv stsenariylar — xorijda keng qo'llanilsa-da, ularning mahalliy ta'lim tizimidagi tatbiqi hali keng emas [8,9,11,12,18].

Yuqoridagi adabiyotlar asosida xulosa qilish mumkinki, talaba markazli yondashuv klinik farmakologiya fanini samarali o'qitishda asosiy innovatsion yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu yondashuv orqali nafaqat nazariy bilim, balki klinik tafakkur, amaliy ko'nikma va muloqot madaniyati ham shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda klinik farmakologiya fanini o'qitishda talaba markazli yondashuv asosida yaratilgan innovatsion o'quv modelining samaradorligini baholash maqsad qilingan. Tadqiqot eksperimental va kuzatuv metodlariga asoslangan holda olib borildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Tadqiqot obyekтини Alfraganus universitetining davolash ishi yo'nalishida tahsil olayotgan 3-bosqich talabalar tashkil etdi (jami 60 nafar). Predmet sifatida klinik farmakologiyani o'qitish jarayoni va undan olinayotgan natijalar o'rganildi. Tadqiqot davomida talabalar tasodifiy ikkita guruhga ajratildi: nazorat guruhi (30 nafar) — an'anaviy o'qitish uslublari asosida ta'lim oldi (ma'ruza, frontal seminar), hamda tajriba guruhi (30 nafar) — talaba markazli yondashuv asosida, ya'ni interaktiv darslar, PBL (muammo asosida o'qitish), kichik guruhli muhokamalar va simulyatsion mashg'ulotlar asosida o'qitildi.

Qo'llanilgan usullar:

Didaktik tajriba – ikki xil o'qitish modelining samaradorligini taqqoslash;

Test sinovlari – har ikki guruhda dastlabki va yakuniy bilim darajasi baholandi;

So'rovnomalar va intervyular – talabalar fikrini aniqlash uchun anonim shaklda o'tkazildi;

Tahliliy-statistik usullar – natijalarni SPSS dasturi yordamida matematik-statistik qayta ishlash (o'rtacha qiymatlar, dispersiyalar, $p < 0.05$ asosida ishonchlilik darajasi baholandi).

Tadqiqot muddati va o'tkazilgan joyi: Tadqiqot 2024-yil sentabr oyidan 2025-yil may oyiga qadar Alfraganus universiteti tibbiy ta'lim fakultetida o'tkazildi.

Muhokama va natijalar. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talaba markazli yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim klinik farmakologiya fanini o'zlashtirishda an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega.

Bilim darajasi bo'yicha taqqoslash: Tajriba guruhida o'quv kursi yakunida o'tkazilgan test natijalarida o'rtacha ball $87,3 \pm 4,1$ bo'lgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich $74,5 \pm 5,8$ ni tashkil etdi ($p < 0.05$). Bu esa talaba markazli o'qitish modeli o'zlashtirish darajasini sezilarli oshirganini ko'rsatadi.

Klinik tafakkur va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari: Tajriba guruhidagi talabalar klinik holatlar asosida berilgan topshiriqlarda:

- dori vositalarini to'g'ri tanlash,
- dozani hisoblash,
- nojo'ya ta'sirlarni aniqlash,
- farmakoterapiyani individuallashtirish kabi masalalarda mustaqil ravishda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasini ko'rsatdi. Ularning 82% klinik holatlar yuzasidan to'g'ri qaror qabul qilgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 61% ni tashkil etdi.

Talabalar fikrlari (so'rovnomalar asosida): Tajriba guruhidagi talabalar quyidagi fikrlarni bildirdilar:

- 90% — darslar qiziqarli va interaktiv o'tgani sababli o'zlashtirish darajasi oshganini aytdi;
- 87% — kichik guruhlarda ishlash klinik tafakkurni rivojlantirishga yordam berganini qayd etdi;
- 79% — simulyatsion mashg'ulotlar real amaliyotga yaqin tajriba berganini ta'kidladi.

Nazorat guruhi talabalarining asosiy e'tirozi – ma'ruzalar zerikarli va passiv o'tishi, bilimlar amaliyotda qo'llanilishiga ishonch pastligi bo'ldi.

Muhokama: Olingan natijalar xalqaro ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan hamohang. Masalan, Dolmans va hammualliflari (2005) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda PBL asosidagi yondashuv talabalarda mustaqil o'rganish, amaliy qaror qabul qilish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda samaraliroq ekanligi qayd etilgan.

Bizning tadqiqotda ham shunga o'xshash xulosalarga kelindi: talaba markazli yondashuv nafaqat bilim, balki fikrlash, baholash, qaror qabul qilish va jamoaviy ishlash kabi muhim klinik ko'nikmalarni shakllantiradi.

Xulosa va takliflar. O'tkazilgan tadqiqot va amaliy tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, talaba markazli yondashuv klinik farmakologiya fanini o'qitishda yuqori samaradorlikka ega bo'lib, u:

talabalarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantiradiklinik tafakkur, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi;

darslarni interaktiv, mazmunli va amaliyotga yaqinlashtiradi;

kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu o'quv modeli an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan samaraliroq bo'lib, zamonaviy tibbiy ta'lim talablariga to'liq javob beradi.

Takliflar:

1. Klinik farmakologiya fanini o'qitishda talaba markazli yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etish, ayniqsa klinik bosqichdagi talabalar uchun.

2. O'qituvchilar malakasini oshirish kurslari va seminarlar orqali innovatsion metodlarni o'rgatish (PBL, simulyatsiya, kichik guruhlarda o'qitish).

3. Virtual o'quv resurslari, simulyatsion platformalar va interaktiv topshiriqlar asosida o'quv modullarini ishlab chiqish.

4. Talabalarining ta'lim jarayonidagi faolligini doimiy monitoring qilish va baholash tizimiga formatif yondashuvni kiritish.

5. O'zbekistonning tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talaba markazli o'qitish konsepsiyasini umumlashtirish va milliy ta'lim standartlariga integratsiya qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World Health Organization. Transforming and scaling up health professionals' education and training: WHO guidelines. Geneva: WHO; 2013.

2. Harden RM, Laidlaw JM. Essential Skills for a Medical Teacher. 2nd ed. Elsevier; 2017.

3. Dolmans DHJM, De Grave W, Wolfhagen IHAP, van der Vleuten CPM. Problem-based learning: future challenges for educational practice and research. Medical Education. 2005;39(7):732-741.

4. Thistlethwaite JE, Davies D, Ekeocha S, Kidd JM, MacDougall C, Matthews P, Purkis J, Clay D. The effectiveness of case-based learning in health professional education: a BEME systematic review. Medical Teacher. 2012;34(6):e421-e444.

5. Best Evidence Medical Education (BEME) Collaboration. Available from: www.bemecollaboration.org

6. Frenk J, Chen L, Bhutta ZA, Cohen J, Crisp N, Evans T, Fineberg H, et al. Health professionals for a new century: transforming education to strengthen health systems in an interdependent world. Lancet. 2010;376(9756):1923-1958.

7. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Tibbiy ta'limni takomillashtirish konsepsiyasi. Toshkent; 2020.

8. Ruiz JG, Mintzer MJ, Leipzig RM. The impact of e-learning in medical education. Academic Medicine. 2006;81(3):207-212.

9. Rakhmatova M.R., Jalolova V.Z., Jumaeva G.A., Nazarov C.E. The level of knowledge of students acquired in interactive ways "Blitz method" and "Case study" // Новый день в медицине 2019, 4(28), C.69-73

10. Rakhmatova M.R., Jalolova V.Z. Effectiveness of the combined application of interactive methods "debats" and "a weak link" in the conduct of the lesson // Биология и интегративная медицина»- 2018. - №4. С 225-131

11. Rakhmatova M.R., Jalolova V.Z. "The place of innovative technologies in training of highly qualified personnel in the highest medical educational institutions // Биология и интегративная медицина 2018. - №3. С. 234-247.

12. Rakhmatova M. R. et al. Interactive methods "blitz method" and "case study" factor affecting the level of knowledge // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 807-810.

13. Orziev, Z. M., et al. "Criteria for the effectiveness of the level of knowledge of students acquired by interactive teaching methods." Diary of the Kazan Medical School (2019): 38-42.

14. Cook DA, Hatala R, Brydges R, Zendejas B, Szostek JH, Wang AT, Erwin PJ, Hamstra SJ. Technology-enhanced simulation for health professions education: a systematic review and meta-analysis. JAMA. 2011;306(9):978-988.
15. Klichova F. K. et al. EFFICIENCY OF METHODS OF DACTIC PLAYING IN DEVELOPING PROFESSIONAL SKILLS //Новый день в медицине. – 2020. – №. 4. – С. 528-529.
16. Раҳматова М. Р. и др. Талабалар орасида соғлом турмуш тарзини тарғиб этувчи тўғараклар ташкил этишининг устуворлиги //Биология и интегративная медицина. – 2021. – №. 1 (48). – С. 444-454.
17. Рахматова М.Р., Жалолова В.З., Мустафаева Ш.А., Нурова З.Х. Малакали тиббий кадрлар тайёрлашда инновацион педагогик педагогик технологияларнинг ўрни // Новый день в медицине - 2020. - № 1 (20). - С. 77-80.
18. Орзиев З.М., Рахматова М.Р., Жалолова В.З., Кличова Ф.К. Критерии эффективности уровня знаний студентов, приобретенных интерактивными методами обучения // «Дневник Казанской медицинской школы» 2019, июнь С. 38-42 З.
19. Орзиев З.М., Рахматова М.Р., Жалолова В.З. Влияние интерактивных методов обучения на формирование уровня клинических знаний // Вестник Международного Университета Кыргызстана 2018 №3 С 163-167
20. Орзиев З.М., Рахматова М.Р., Жалолова В.З. Влияние интерактивных методов обучения на формирование уровня клинических знаний// Вестник Международного Университета Кыргызстана 2018 №3- С. 163-167
21. Орзиев З.М., Рахматова М. Р., Жалолова В. З. Интерактив методларни бирлаштирган холда дарс утиш самарадорлиги/« //Современное состояние, проблемы и перспективы медицинского образования» международная учебно-научно-практическая конференция Бухара. – 2018. – С. 92-95.

ANNALS OF CLINICAL DISCIPLINE

АННАЛЫ КЛИНИЧЕСКИХ ДИСЦИПЛИН КЛИНИК ФАНЛАР ЙИЛНОМАСИ

Научно-практический журнал по всем
направлениям медицины
основан в 2024 году

Бухарским государственным
медицинским институтом

Выходит один раз в 3 месяца

Учредитель Бухарский государственный
медицинский институт